

## “XAMSA, EPOS, ROMAN: ALISHER NAVOIY - „XAMSA” VA FRANSUA RABLE - GARGANTUA AND PANTAGRUEL”

*Turayeva I.B, Rahmonova Z.A  
Samarqand Davlat Universiteti  
O‘zbek adabiyoti tarixi kafedras*

**Anatatsiya:** Mazkur maqolada xamsa, epos, roman va ushbu janrlarda ijod qilgan yozuvchilar haqida keng ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, Sharq va G‘arb adabiyotining mumtoz asarlarida aks ettirilgan insonparvarlik g‘oyalari tahlil qilinadi. Maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” hamda Fransua Rablening “Gargantua va Pantagruel” asarlari o‘rganiladi. Qiyosiy adabiy tahlil orqali ta’lim va ijtimoiy qarashlar masalalaridagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy farqlarga qaramay, har ikki muallif ilm va insoniy qadr-qimmatning muhim ekanligini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Xamsa, epik roman, qiyosiy tahlil, badiiy obraz, Sharq adabiyoti, G‘arb adabiyoti, realizm, adabiy meros, satira, falsafiy qarashlar.

**Kirish:** Butun dunyo adabiyotida keng qo‘llanib kelayotgan **uch tushuncha** barcha turdagi yozuvchilar ijodida keng miqyosda foydalanib kelinmoqda. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini sarvlavhada kelgan „Xamsa” „Roman” va „Epos” tushunchalari tashkil etishi maqsad qilingan ekan, dastlab istiloh masalasini oydinlashtirib olish zarurati bor.

„Roman” tushunchasi o‘zining ilk qo‘llanilgan vaqtdan bugunga qadar zamon, makon, dunyoqarash, maqsad-muddaolar kontekstida xilma-xil, xatto o‘zaro zid keluvchi talqin va sharhlariga ega.

Maxsus adabiyotlarda „Roman” istilohiga shunday ta’rif beriladi: „Roman-nasriy asar janri: muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning shakllanish va kamol topish jarayoni badiiy makon va zamonda tasvirlangan asar hisoblanadi. Roman o‘rta asrlarda roman tillarida yozilgan har qanday asarni anglatgan. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir-birini inkor etmaydigan ma’lum ma’noda mustaqil olam sifatida tahlil va talqin etiladi. Xuddi shu narsa roman janri mundarijasining o‘ziga xosligini belgilab beradi. Shaxs taqdirining oilaviy-maishiy, milliy, ijtimoiy, madaniy va tarixiy muhit bilan o‘zaro uzviy aloqada tasvirlanishi roman janrining ko‘lami va g‘oyaviy-badiiy qimmatini namoyish etadi. Roman janri markazida bosh qahramon obrazi turadi. U janrning mundarijasini-syujet chiziqlarini harakatlantirib turadi. Bosh qahramonning shaxs sifatidagi fazilatlari ana shu jarayonda, bosh qahramonlar bilan munosabatida, kurashida ochiladi. Roman o‘z tarxining dastlabki davrida mavjud adabiy janrlarga parodiya sifatida maydonga kelgan. Keyinchalik, romannavislarning

muayyan uslubiy tuzilma va tasviriy vositalar tizimini sayqallashtirishga qaratilgan urinishlari ham parodiya qilingan. Mavzu, hajm, syujetning murakkablik darajasi, kompozitsion tuzilish va tasvir usullarida muayyan farq bo'lishiga qaramay, roman janrida ba'zi bir badiiyat unsurlarining (**intriga, konflikt**) yechim kabi bo'lishi talab etiladi.

Ko'rinyaptiki, roman haqida yuritilgan tahlil bizning oldimizga tabiiy ravishda „Xamsa“ va „Epos“ tushunchalarini ham izohlash talabini qo'yayпти. Manbalarda „Xamsa“ tushunchasiga: „Sharq mumtoz adabiyotida besh dostonidan iborat asarlar to'plami“ „Xamsa-arabcha so'zdan olingan bo'lib „besh“ degan ma'noni bildiradi. Bu atama adabiyotda bir shoir tomonidan yozilgan besh yirik epik asar majmuasini ifodalaydi. „Epos“ tushunchasi esa: „Epos (yunoncha-so'z, rivoyat, hikoya), eposlar (yunon.epos) so'zidan kelib chiqqan bo'lib voqealarni hikoya qilish (bayon qilish) uslubiga asoslanadi. Shunday ekan, bu uchala janr ham adabiyotda o'z o'rniga ega. Quyida ayni masala mohiyatini Sharq G'arbning ikki buyuk allomasi **Alisher Navoiy va Fransua Rable** asarlari misolida muxtasar tahlil etish ko'zda tutiladi. Turli madaniyatga mansub bo'lgan adabiy asarlarni o'rganish insoniy qadriyatlarni o'rganish imkonini beradi.

Alisher Navoiy turk adabiyotining buyuk vakili bo'lib, u **„Xamsa“** deb atalgan mashhur besh doston jamlanmasini yaratgan. **Xamsa turk, arab, fors klassik adabiyotining yetakchi va ko'p murojaat etilgan janrlaridan biri.**

Mutaxassislarining qayd etishicha: Alisher Navoiyning „Xamsa“ asariga qadar ham xamsachilik bilan shug'ullangan shoir va yozuvchilar mavjud edi. Nizomiy Ganjaviyning (1141-1209) „Panj Ganj“, Amir Xusrav Dehlaviyning (1253-1325) „Xamsai Xusrav“, Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) „Haft Avrang“ asarlari yozilgan edi. Bu an'anani hamma xamsanavis shoirlar bir xil yozgan. Ammo Alisher Navoiy ulardan o'zgacha ravishda bu asarni o'zgartirib yozadi. Boshqa xamsanavislar bu asarni bir xil tilda va bir xil uslubda yozishadi, lekin Alisher Navoiy uni turk tilida yozadi va uning tarkibidagi qahramonlarni o'zgartirib ularni o'z hayolidagidek tasvirlaydi. Shuningdek, Navoiy „Xamsa“ dagi besh dostonni quyidagicha nomlaydi:

- 1) **„Hayrat ul- abror“**
- 2) **„Farhod va Shirin“**
- 3) **„Layli va Majnun“**
- 4) **„Sabbai sayyor“**
- 5) **„Saddi Iskandariy“ kabi.**

Ushbu dostonlarda Sharq adabiyotidagi ijtimoiy va falsafiy g'oyalar keng tasvirlangan.

Har kimki jahon ichra komil erur,  
Ilm ila amal bila odil erur.

Bu misralarda shoir komil inson g'oyasini ilgari suradi. Navoiyga ko'ra insonning komilligi ilm va amal bilan belgilanadi. Ya'ni inson faqat bilim egasi bo'lishi yetarli emas, balki u bilimni hayotda qo'llashi kerak.

Ishq aro jon fido qilmoq erur shart,  
Ishqsiz odam ermas ahli dard.

Bu parcha ishq falsafasini ifodalaydi. Farhod obrazi orqali Navoiy sadoqatli muhabbat timsolini yaratadi. Shoir fikricha, haqiqiy ishq insonni ruhiy jihatdan poklaydi va yuksaltiradi.

Adl ila bo'lsa jahonda podshoh,  
Xalq topar undan hamisha panoh.

Bu parcha davlat boshqaruvi va adolat g'oyasiga bag'ishlangan. Shoir podshohning asosiy vazifasi xalqni adolat bilan boshqarish ekanini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning Xamsa asarlari Sharq adabiyotining yuksak namunasi hisoblanadi. Ushbu dostonlarda komil inson g'oyasi, muhabbat falsafasi, adolat va davlat boshqaruvi, ilm va ma'rifatning ahamiyati kabi muhim g'oyalar badiiy tarzda ifodalangan.

Shuningdek, **Fransua Rable** Fransiya Renessans davrining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, u **“Gargantua va Pantagruel”** nomli romanni yaratgan. Bu romanda yozuvchi kulgi orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beradi hamda insonparvarlikni, ta'limni ulug'laydi.

Asarda Gargantua o'g'li Pantagruelga maktub yozib, ilm va ta'limning ahamiyatini tushuntiradi.

„Ilmni sev va uni chuqur o'rgan, chunki bilim insonni komillikka yetkazadi“. Gargantua o'g'liga faqat kitob o'qishni emas, balki har tomonlama bilim olishni tavsiya qiladi. Bu orqali muallif o'rta asrlarning tor diniy ta'limidan farqli ravishda fan, san'at va falsafani o'rganishga asoslangan yangi ta'lim tizimini targ'ib qiladi.

Pantagruel asarda bilimli va dono qahramon sifatida tasvirlanadi.

“Bilim insonni yuksaltiradi, jaholat esa uni tubanlikka olib boradi“. Bu fikr asarning asosiy gumanistik g'oyalaridan birini ifodalaydi. Muallif bilimni inson taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rsatadi. Pantagruel obrazi orqali ma'rifatli, keng dunyoqarashli, inson ideali yaratilgan.

**Metodologiya :** Mazkur tadqiqotda qiyosiy badiiy tahlil usullaridan foydalanildi. Asarlarning matnlari o'rganilib ularning mavzusi va g'oyalarining adabiy uslubi talqin qilindi. Shuningdek, mualliflar yashagan davrning tarixiy va madaniy sharoitlari hisobga olindi.

**Natijalar:**Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Navoiy ham, Rable ham ta'limning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi . Navoiyning "Xamsa"asarida ta'lim insonning ruhiy kamoloti bilan chambarchas bog'langan. Asar qahramonlari asosan, adolat va donolikni namoyon etadi. Rable esa ta'limni " Gargantua va Pantagruel" asari orqali erkin fikrlashni va ilmiy izlanishlarni ilgari suradi. Shuningdek, ikkala muallif ham ijtimoiy adolatsizliklarni tanqid qiladi. Navoiy ramziy obrazlar orqali axloqiy tamoyillarni tasvirlasa, Rable esa satira orqali diniy ikkiyuzlamachilikni fosh etadi.

**Muhokama:**Badiiy shakl va uslubdagi farqlarga qaramay, har iki asar o'z davrining muammolarini aks ettiradi. Bu asarning ikkalasi ham ma'naviy va ijtimoiy tarbiyaning vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda adolat va insonning qadr-qimmatini kabi g'oyalar dolzarb muammolardan hisoblanadi.

**Xulosa:**Navoiyning "Xamsa" si va Rablening " Gargantua va Pantagruel" asarlaridagi muhim o'xshashliklar mavjud. Ikkala muallif ham ta'lim va axloqiy qadriyatlarni ulug'lash orqali nafaqat o'z milliy adabiyotiga balki jahon adabiyotiga ham yuksak hissa qo'shgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy . **Xamsa.**- Toshkent :G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011.
2. Alisher Navoiy . **Xazoyin ul- maoniy ( G'azallar devoni ).**- Toshkent : Fan nashriyoti , 2008 .
3. Izzat Sulton .**Navoiy ijodi masalalari .**- Toshkent : O'qituvchi nashriyoti , 1983 .
4. Abduqodir Hayitmetov . **Alisher Navoiy adabiy merosi .**- Toshkent : Fan nashriyoti , 1971.